



Jalil AMIRQULOV,

O'zbekiston Milliy universiteti stajyor-o'qituvchisi

E-mail:amirqulovjalil@gmail.com

Shirinbonu MAJDOVA,

O'zbekiston milliy Universiteti stajyor-o'qituvchisi

Professor A.Umarov taqrizi asosida

STUDY OF MINERAL MINES USING QGT DATA (EXAMPLE OF DJASAGA FIELD)

Annotation

As human needs for energy continue to grow, attention to nuclear energy, which currently has no real alternative, needs to be strengthened in the near future to meet it. Economists estimate that traditional reserves of natural fuel (oil, gas, coal) will reach 100-150 years. Today, Japan, Germany, Italy, France, Belgium, Switzerland and other developed countries are facing a fuel shortage. Replenishment of the main energy resources is carried out through the construction of nuclear power plants (NPP) and the operation of these stations with radioactive energy sources (uranium, thorium, etc.).

Key words: Djasaga area, sandstone type, gamma-karotaj, permeable horizont, oxidation-reduction.

QGT MA'LUMOTLARI YORDAMIDA MA'DANLI KONLARNI O'RGANISH (DJASAGA MAYDON MISOLIDA)

Annotatsiya

Insoniyatning energiyaga bo'lgan ehtiyoji mutassil ravishda ortib borayotganligi sababli uni qondirish uchun hozirda real muqobili yo'q atom energiyasiga yaqin kelajakda e'tiborni kuchaytirish kerak. Iqtisodchilar tabiiy yoqilg'ining zahiralarini (neft, gaz, ko'mir) 100-150-yilgacha yetadi deb hisobladilar. Bugungi kunda Yaponiya, Germaniya, Italiya, Fransiya, Belgiya, Shvesariya va boshqa rivojlangan davlatlar yoqilg'i taqchilligiga yuz tutmokda. Asosiy energiya resurslarini to'ldirish atom elektr stansiyalarini (AES) qurish hisobiga va u stansiyalar radioaktiv energiya manbalari (Uran Toriy v.h.lar) faoliyati orqali amalga oshiriladi.

Kalit so'zlar. Djasaga maydoni, qumtoshti tip, o'tkazuvchi gorizont, gamma- karotaj, oksidlanish-qaytarilish.

ИЗУЧЕНИЕ МЕСТОРОЖДЕНИЙ ПОЛЕЗНЫХ МЕСТОРОЖДЕНИЙ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ДАННЫХ ГИС (НА ПРИМЕРЕ МЕСТОРОЖДЕНИЯ)

Аннотация

Поскольку человеческий спрос на ДЖАСАГА энергию продолжает расти, необходимо в ближайшем будущем сосредоточить внимание на ядерной энергии, чтобы удовлетворить ее, у которой в настоящее время нет реальной альтернативы. По оценкам экономистов, традиционных запасов природного топлива (нефти, газа, угля) хватит на 100-150 лет. Сегодня с дефицитом топлива сталкиваются Япония, Германия, Италия, Франция, Бельгия, Швейцария и другие развитые страны. Восполнение основных энергоресурсов осуществляется за счет строительства атомных электростанций (АЭС) и эксплуатации этих станций радиоактивными источниками энергии (уран, торий и др.).

Ключевые слова: Джасага площадь песчаника, тип песчаника, проводящий горизонт, гамма-каротаж, окислительно-восстановительный.

Kirish. Jaxon iqtisodiyotida urandan atom stansiyalarining energiya tashuvchisi sifatida foydalilanadi. Xozirgi zamonaviy atom reaktori uchun uranning ananaviy yoqilg'i uchun ekvivalent energiyasi 30×10^4 ming tonnaga teng. Shunga ko'ra, uran neftidan 20 ming barobar, ko'mirdan 40 ming barobar ko'proq mikdorda energiya ishlab chikaradi. Bundan tashkari, uran va uning asosida ishlab chiqarilgan plutoni yadroviy quroq ishlab chiqarish uchun qo'llanadi. O'zbekistonda mineral xom ashyo resurslari qatorida uran xomashyosi muxim o'rinn tutadi. O'zbekiston respublikasi uran zaxiraligiga ko'ra dunyodagi dastlabki o'n mamlakat qatoriga kiradi, uran qazib olish bo'yicha dunyoda 5-7 o'rinnlarni egallaydi. O'zbekiston o'zi istemolchisi xisoblanmaydi. O'zbekiston uran xomashyosini ishlab chiqaradi va chetga eksport qiladi so'ngi yillarda jaxon bozorida mustaxkam o'rinn egallamoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Davlat geologik tadqiqotlari bilan qamrab olingen, turli vaqtlardara turli bajaruvchilar tomonidan amalga oshirilgan. X.K. Bobonorov va boshqalar. O'zbekiston Respublikasida uran konlarining Uchquduq turi. Toshkent <Fan>1996. Ushbu qo'llanmada uran konlarining xosil bo'lish sharoitlari yoritilgan bo'lib, tadqiqot olib borayotgan konning xosil bo'lish sharoitini o'rghanishimiz mumkin. (Sklyarenko Yu.N.) 1987-1990 yillarda Ziyaeddin-Zirabuloq va Qoratov Ko'tarilmasi rayonida yalpi uranga izlash ishlari ma'lumotlari keltirilgan bo'ilib ushbu ma'lumotlar asosida konning ma'dan hosil qiluvchi jinslari fatsial sharoitlarini keltirdi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maydon Mezazoy-kaynazoy erasiga tegishli Bukan tog'ning shimoliy va shimoliy-sharqi chegarasida joylashgan.

Ish olib borilayotgan maydon O'zbekiston Respublikasi Navoiy viloyati Tomditog' va Uchquduq tumanlari bilan mamuriy aloqada. Djasaga maydoni o'rghanilayotgan hududning sharqiy qismida joylashgan bo'lib, u geomorfologik jihatdan eol (serg'ovak joyakli, past-balardan barxanli) qumlar keng tarqalgan biroz adirlik tekisliklardan iborat bo'lib, ular orasida 50-60m chuqurlikdagil aloxida suvsiz depressiyalar mavjud. Mintaqaning quyi janubiy qismida qumli cho'l shimoliy va shimoli-g'arbda Turbay va Djetimotg'ning paleozoy massiflarini Bukantog' tizimiga kiradigan odatiy prolyuval tekslilik aylantiradi. Djasaga maydonining mutloq balandligi 240 metr dan 400 metrgacha, janubi-sharqiyo yo'nalishida o'sib boradi.

Burg'ishl shuduqlari bilan uran konlari va boshqa foydalni qazilmalarni bashoratlash, qidirish va geologiya-kidiruv ishlarining barcha bosqichlari kuzatiladi. Bu xolda shuduq bo'ylab geologik bo'limini aniqlab olish, madanlarni strukturalarni nazorat qilish madan gorizontlari, ma'dan oralig'idagi chegaralarni aniqlash, ulardagagi radioaktiv elementlarning tarkibini tezkor baholash va shuduqlarning teknik holatini tekshirish kerak. Bu masalalarni hal qilishda keng qamrovli QGT yordam beradi. O'zbekistonda uran uchun geologik-geofizik tadqiqotlar o'tkazishning turli bosqichlarida olib borilgan geofizik tadqiqot ko'p yillar ish olib borish davomida quydagi ratsional kompleksini aniqlanadi.

1. Elektrokarotaj qo'llanadi tuyuluvchi qarshilik (KC) va o'z-o'zidan hosil bo'luvchi potensiallar (PS) usullari orqali litologiyasi va litologo-filtratsiya hususiyatlarini va geologik kesimini aniqlash maqsadida qo'llaniladi.

2. Gamma karotaj (GK)-bu usul orqali tog' jinslarning tabiiy radioaktivligini, shuduq kesimining litologik chegaralarini intervallarini aniqlash, uranni tarkibini va zaxirasini baxolash, aniqlash.

3.Kavernometriya – quduqning haqiqiy diametrini chuqurlik bo'yicha o'zgarishi o'lchanadi. Kuzatuvlar kavernometr deb atalgan asboblar bilan o'tkaziladi. Burg'i yoki koronkaning diametriga to'g'ri kelgan quduqning diametri nominal d_n deb ataladi. Ish natijasida kuzatilgan egi chiziq kavernogramma deb ataladi.

4.Inklinometriya – quduqni qiyalik burchagi o'lchanadi. Quduqni qiyishayish dalillari, quduqning chuqurligini va qatlamlarning haqiqiy yotish chukurligini aniqlash uchun kerak. Kuzatuvlar inkilometr deb atalgan asbob bilan o'tkaziladi.

5.Yadro-fizikaviy karotaj – jinslarning tabiiy radioaktivligini va sun'iy gamma va neytron nurlanishlar ta'sirida hosil bo'lgan ikkilamchi gamma va neytronlar nurlanishlarining keskinligini o'rganishga asoslangan. Elektrik karotajga nisbatan yadroviy karotajni temir quvurlar bilan mustahkamlangan va quvursiz quduqlarda o'tkazish mumkin.

Tahlil va natijalar. Djasaga maydonida quduqlarning geologik qirqimini o'rganish ma'dan saqlovchi gorizontlarni o'rganish uchun quduqlarda geofizik tadqiqot ishlari kompleks qo'llanilgan. Elektrokarotaj (KS+PS), Gamma karotaj (GK) inklinometriya va kavernometriya bo'yicha amalga oshirilgan. Quduqlardan ko'tarilgan kernlarni chuqurlik bilan muvofiqlash uchun radiometriya usulidan foydalanish olingan malumotlarni hujjatlashtirish.

Quyidagi vazifani bajarishda QGT kompleksi qo'llaniladi. Radioaktiv anomaliyalarni aniqlash va ular tarkibidagi uranning parametrlarini hisoblash (qalinligi, tarkibi, metrofoiz).

- Ma'dan saqlovchi qatlamlar qirqimining litologik tarkibi va infiltratsiya hususiyatlari;
- Kernda madanli intervallarini aniqlash va ifodalash.

Qo'yilgan vazifalarni bajarish uchun geofizik tadqiqotlarini tashkil etish va o'tkazish ishlari olib borilgan. O'ichovlarni metrologik qo'llab quvvatlash, tog' jinslarning litologik taqsimlanishi va ularni quduqlar qirqimida joylashishini aniqlash, qirqim ma'danli gorizontlarni ajratish va ularning o'tkazuvchanligini baxolash, ulardag'i uran ma'danini aniqlash va ularning tarkibini zaxirasini baholash.

Quduqlarning texnik xolatini inklinometriya va kavernometriya usullari o'rganadi. Kavernometriya quduqlarning kengayish va torayish yani diametrini aniqlaydi. Gidrogeologik quduqlarda tokovoy karotaj (TK) va termometriya (TM) usullari qo'llaniladi.

QGT natijalarini geologik tahlil qilishda, tog' jinslarning fizik xususiyatlariga ko'ra yaxshi farqlanishi qatlarni suvlarining kuchsiz mineralizatsiyasi, mintaqaviy va lokal reper gorizontlarini mavjudligi qaysiki hamma qo'llaniladigan usulublar o'rganilishi qulayligi muhim hisoblanadi.

Djasaga maydonida mintaqaviy ko'rsatkichlari past solishtirma elektr qarshilikka ega (5-10 Om·m), gamma-intensivlik (10-12 mkR/s) va past tabiiy potensial amplitudali ΔU_{ps} (5-25), quyi gil qatlami, solishtirma elektr qarshiligi (7-12 Om·m), o'rta eotsenda mergel (12-13 mkR/s).

QGT natijalarini geologik izohlashni murakkablashtiradigan omillar, Bu yerda yetarli darajada bo'lgan murakkab tuzilmali ruda gorizonti, Cho'kindi jinslarning turli hil sharoitlari (turli darajadagi qum, turli sementlari qumtosilari, qum va shag'al qo'shimchalari va boshqalar).

GK bo'yicha olingan ma'lumotlar miqdoriy interpretatsiyasi

Gamma karotaj usulidan olingan natijalar interpretatsiyasi va ma'danli oraliqlarni aniqlash uran ma'dan tanasi tarkibi va zaxirasini metrofozini aniqlash uchun ma'lumotlarini miqdoriy interpretatsiya va ruda intervallarini aniqlash tarkibiy qismlar va uran zahiralari (metro-foiz) parametrlar ushbu gamma karotaj natijasida olingan gamma faolligi egi shakli va intensivligiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq. Gamma radiatsiyasi KOBRA-M raqamlari stansiyasitomonidan yozib olinadi. GKning miqdoriy talqin qilish uslubiyati quydagicha; 50 mkR/s dan yuqori ko'rsatkichli anomaliyalar oldindan raqamlashtirilib, 10 sm kvantlash bosqichi bilan o'tadi. Olingan natijalar bevosita mkR/s larda shaklida ifodalanganususiyatlardan foydalangan holda, o'rtacha qiymatlar yaxlitlanadi. Keyin talqin ikki bosqichda amalga oshiriladi.

Gamma karotaj ma'lumotlarini miqdoriy talqin qilishda ma'dan oralig'i va ularning tarkibidagi uranning qalinligi aniqlash uchun amalga oshiriladi. Barcha ma'lumotlar asosiy materiallardan olinadi, buning uchun quduqning ruda oralig'i raqamlari hisoblanadi. Ma'lumotlarni kiritish quduq raqamlari boshlang'ich chuqurligi anomaliya oralig'i m, quduq diametri mm, quduq zondi diametri mm, obsadka kalonkasi diametrda mm da agar quduqlar obsadka qilingan bo'lsa. Ma'dan zichligi g/sm³, burg'i eritmasi zichligi g/sm³, jinslar namligi % da beriladi.

Gamma karotajda diametri 60 mm bo'lgan zond yordamida o'lchash ishlari yo'riqnomalar bo'yicha amalga oshiriladi tog' jinslarning zichligini o'zgarishi oralig'i da bo'ladi 1.5-2.5 g/sm³.

Djasaga maydonida gidrogeologik quduqlarda ma'dan saqlovchi gorizontlardan 17 monolit olingan. Olingan ma'lumotlar statistik jihatdan yetishmasligi sababli tog' jinslari va ma'dan saqlovchi qatlamlarning zichligining miqdoriy koeffitsenti o'zgarmagan 2.0 g/sm³ va u V_k koeffitsenti o'zgarishiga tasir qilmaydi.

Ma'danli oraliqda uran miqdori va zaxirasini hisoblashda tog' jinslari va ma'dan saqlovchi qatlamlar kamligini miqdoriy koeffitsenti kiradi. Tog' jinslari va saqlovchi qatlamlarning namligi miqdoriy koeffitsenti Djasaga maydoni uchun 20% deb oliingan.

Djasaga maydonining ma'dan saqlovchi konyak va turon gorizontlari (K_{rr}) radioaktiv muvozanatni belgilovchi umumiy o'rtacha qiymati.

№1-Jadval

Gorizont	Oraliqlar soni	Oraliqlar qalinligi yig'indisi m	Metro-fozlar yig'indisi 10 ⁻⁴		K _{rr} qiymati	O'rtacha qiymati	taqribiyl S
			Uran	radiy			
K ₂ k	32	23,40	5438	3124	0,55	0,57	0,16
K ₂ t ₂	21	9,60	2613,2	1632,4	0,75	0,62	0,25

Keyingi jadvalda o'tkazuvchan konyak va turon gorizontlarida radon siqilishini belgilovchi o'rtacha qiymati

Djasaga maydonida gamma-karotaj natijalarini taqqoslash asosida olingan radon siqilishini o'rtacha miqdoriy qiymati.

№2- Jadval

Interval soni		Ma'dan oraliqlari qalinligi yig'indisi m	Namumalar bo'yicha mS, Ra 10 ⁻⁴	gamma-karotaj bo'yicha mS, Ra 10 ⁻⁴	Msop/Msg Radon siqilish tuzatmasi	
18	Ma'dan saqlovchi gorizont (K ₂ k)					
	Summa	16,80	1930	1625		
	O'rtacha	0,93	107,22	90,28	1,20	
18	Ma'dan saqlovchi gorizont (K ₂ t ₂)					
	Summa	12,00	1605,4	1359		
	o'rtacha	0,67	89,19	75,50	1,20	
	S				0,17	

Taqqoslash natijalarini statistik qayta ishlashtirish uslubiy talablariga muvofiq amalga oshiriladi. Bu koeffitsentlar analitik tadqiqot natijalarini asosida olingan. Analitik tadqiqotlar labaratoriya da amalga oshiriladi.

Quduqda ma'danli oraliq anomaliyasini ko'rinishi


Olingan K_{rr}-0.55 P_{obj}-1.2 koeffitsientlardan bizga ma'danli oraliqlarni xisoblashda foydalanamiz va tabullagramma orqali hisoblanadi.

Djasaga maydonida litologik va filtrlash hususiyatlarini o'rganish metodikasi.

Djasaga maydonida litologik-filtrlash hususiyatlarini o'rganish uchun QGT asosiy kompleks talqin qilinadi, jinslarning litologik qismini ajratib olish va ulami quduqlarning korrelyatsiya qismlarida joylashishini aniqlash, bo'limda rudali gorizontlarning izolyatsiyasi va ularning

o'tkazuvchanligini baholash.Litologik kesimni ajratish ushbu ketma-ketlikda amalga oshiriladi. Quduqlarning geologik kalonka quriladi chuqur egri chiziqlari tasvirlangan ρ_k , ΔU_{ps} va J_y , ularni ro'yxatga olish masshtabi va ko'tarilgan kern, karotajni talqin qilish uchun jurnal qo'shiladi. Chiziqlar konfiguratsiyasidan harakterli nuqtalar va ularga tasir ko'rsatadi, Parametrlar soni qiyomatlar, ρ_k , ΔU_{ps} va J_y , kompleksning uchta usuli bilan bir-birdan harakterlangan hususiyatlarni aks ettiradi.Djasaga hududida bunday istiqbollar past qarshilikari Mezazoy-Kaynazoy erasinining gilinalarida quyi eotsen alevroti gilina va yuqori eotsenda (5-8 Om'm) karbonatli qum kampan maastrih va pliotsenda (25-30 Om'm). Djasaga maydonida lokal anomaliya γ -urlanish intensivligi 50-80 dan 100-900 mkR/s, cho'kindi qumlar yuqori Turon va konyak yarusiga tegishlidir. Quduq kesimining litologik jinslarning tarkibini egor shakliga ko'ra amalga oshiriladi ρ_k ,bu qatlamlarning chegaralarini anqliashning asosiy usulini hisoblanadi, balki qiyomatlar ΔU_{ps} va J_y ularning litologik bog'liqligi aniqlanadi. Geologik-geofizik va geologik kesimlarni qurishda, quduqlardagi jinslar va rudalarning vertikal joylashuvini ko'rsatadi.Izolyatsiya qilingan gorizontlarda ΔU_{ps} egor chiziqlari, shartli "gilli chiziq" va "qumli nolli chiziq". LVD larni o'rganish uchun KSni interpretatsiya amalga oshiriladi. KS ning ushbu izohlari quydagi hulosalarga olib keladi.Tadqiqot natijasida jinslarning fizik hususiyatlari ushbu geologik omillarga tasir ko'rsatadi."Quruq" qum va qumtoshchlarda aniq o'ziga hos elektr qarshilik va γ -intensivlik quruq qumlarning qarshiligi 15-20 Om'm va γ -intensivlik 12-13 mkR/s, suvli qismalarda esa 8-10 Om'm va 9-11 mkR/s; quruq qumtoshchlarda qarshiligi 30-35 Om'm va γ -intensivlik 13-15 mkR/s, suvli qismalarda 20-25 Om'm va γ -intensivlik 11-13 mkR/s. Suvli gil jinslarning qarshiligini pasayтиради, tabiiy maydonni pasayтиради, γ -intensivlik oshadi.Shuning uchun qumlarning elektr qarshiligidan silikat darajasidan 15-18 dan 8-10 Om'm gacha kamayadi. ΔU_{ps} qum qarshi 40-70 mV dan 18-20 mV gacha kamayadi, ya'ni ko'proq γ -intensivlik 9-11 mkR/s dan 12-13 mkR/s gacha ko'tariladi.

Djasaga maydonining geologik kesimi B-II profil bo'yicha



Qumlarning aralashmasiga qarab Elektr qarshiligi gilda ko'tariladi 3-4 Om·m dan 7-12Om·mgacha, alevrolit gilina qarshiligi 5-6 dan 9-12 Om·mgacha, γ -intensivlik ularning 9-11 dan 14-16 mkR/s gacha. Karbonatli jinslarda ham o'zgaradi ularning fizik hususiyatlari. Karbonat qum toshlarda qarshiligi 30-35 Om·m va undan yuqori Karbonatsiz qumtoshlarda esa 20-25 Om·m. Shu bilan birga qumdag'i karbonat pelletlari qo'shilishi natijasida qarshilik oshadi va karbonatning tekis tarqalishi elektr qarshilikni sezilarli darajada oshiradi. Bularning barchasi maydonning murakkab geologik tuzulishi bilan birgalikda QGT ma'lumotlarining miqdoriy talqinini murakkablashtiradi va karotaj jurnallar orqali aniqlashni qiyinlashtiradi.

Xulosa va takliflar. Quduqda ma'danli oraliqdan olingen namunalaridan ma'dan saqllovchi qatlam radiologiyasi ma'danli oraliqdagi uran va radiy miqdori aniqlanadi ular asosida uran va radiy, radon va radiy o'rtasidagi muvozanatni belgilovchi qiymatlari kiritildi. Bu qiymatlardan uran ma'danli oraliqlarni miqdoriy interpretatsiya qilishda foydalanildi. Ma'danli va uran saqllovchi qatlamlarni (kern namunalarini o'rganish, elektrokarotaj, gamma-karotaj usuli) orqali litologik filtratsion, radiologik hususiyatlari o'rganildi. QGT usulidan olingen ma'lumotlar ishonchhligi bizga kelajakda uran ma'danlari resurslari va zahiralarini baholashda muhim hisoblanadi. Djasaga maydonida lokal anomaliya y-nurlanish intensivligi 50-80 dan 100-900 mR/s, cho'kindi qumlar yuqori Turon va konyak yarusiga tegishli. Quduq kesimining litologik jinslarning tarkibini egrisi shalqiga ko'ra amalga oshiriladi p., bu qatlamlarning chegaralarini aniqlashning asosiy usuli hisoblanadi, balki qiymatlар Δ Ups va Jy ularning litologik bog'liqligi aniqlanadi.

ADABIYOTLAR

1. Рунов Б.Н. Марказий Қизилкүм вилоятидаги айрим махаллий худудлар бўйича 1: 50000 шимоли чўкиди копламаларни ташкил килувчи ихтисослашган ҳариталари мажмусининг таркиби. 1996-2002 йилларга мўлжалланган 3-93 вазифаси. Тошкент, "Урангеология" 2003 й. 3710-сон.
 2. Л.А.Сим "Фойдали қазилмани конларни излаш ва кидиришнинг геофизик усуллари" тошкент 1996 й.
 3. Каримов Ҳ.К, Бобонаров Н.С, Бровин К.Г, "Учкудук Ўзбекистон уран конлари", Тошкент, "Фан", 1996 йил.
 4. Скляренко Ю.Н. Зиятдин-Зираубулок тог тизмаларида кидирив ишлар натижалари 1987-1990 йилларда амалга оширилган. Тошкент, "Урангеология" Давлат илмий марказининг асослари, 1991 й.